

Journal of Social Research in Uzbekistan**JOURNAL OF SOCIAL RESEARCH IN UZBEKISTAN**

journal homepage:

<https://topjournals.uz/index.php/jsru>**FORMATION AND DEVELOPMENT OF INTERNATIONAL RELATIONS IN THE VIEWS OF SCIENTIST THINKERS*****Tojikhon Davlatkhujeva****Master's student**National University of Uzbekistan**Tashkent, Uzbekistan***ABOUT ARTICLE****Key words:** people, tolerance, patience, history, encyclopedic scientists.**Received:** 19.12.24**Accepted:** 21.12.24**Published:** 23.12.24**Abstract:** This article examines the attitude of great Eastern thinkers to such concepts as tolerance, mutual understanding, mutual support, and friendly attitude of people towards each other. In addition, the views of various scientists, such as Ibn Sina, Beruni, and Al-Farabi, analyze how religious tolerance is born and achieved.**MILLATLARARO MUNOSABATLARNING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISHI QOMUSIY OLIMLARIMIZ NIGOHIDA*****Tojixon Davlatxo'jaeva****Magistratura talabasi**O'zbekiston Milliy universiteti**Toshkent, O'zbekiston***MAQOLA HAQIDA****Kalir so'zlar:** xalq, tolerantlik, sabr, tarix, qomusiy olimlar**Annotatsiya:** Ushbu maqolada buyuk Sharq mutafakkirlarining bag'rikenglik, o'zaro tushunish, bir-birini qo'llab-quvvatlash, odamlarning bir-biriga do'stona munosabati kabi tushunchalarga munosabati o'rganiladi. Bundan tashqari, Ibn Sino, Beruniy, Al-Forobiy kabi turli olimlarning qarashlarida diniy bag'rikenglik qanday yo'l bilan tug'ilgani, unga qanday yo'llar bilan erishilayotgani tahlil qilinadi.**ФОРМИРОВАНИЕ И РАЗВИТИЕ МЕЖНАЦИОНАЛЬНЫХ ОТНОШЕНИЙ ВО ВЗГЛЯДАХ УЧЕНЫХ МЫСЛИТЕЛЕЙ*****Таджихон Давлатхужаева****Магистрант**Национальный университет Узбекистана**Ташкент, Узбекистан*

О СТАТЬЕ

Ключевые слова:	Аннотация:
народ, толерантность, терпение, история, учёные-энциклопедисты.	В данной статье рассматривается отношение великих мыслителей Востока к таким понятиям, как толерантность, взаимопонимание, взаимная поддержка, дружеское отношение людей друг к другу. Кроме того, во взглядах различных ученых, таких как Ибн Сина, Беруни, Аль-Фараби, анализируется, как зарождается и как достигается религиозная толерантность.

Kirish. Asrlar davomida yuzdan ortiq millat va elat vakillari tinch-totuv, ahil va inoq, bir-biri bilan do'st hattoki aka-ukadek bo'lib ketib, xalqimiz orasiga singishib, bir maqsad yo'lida birdam, hamfikir bo'lib yashab kelmoqdalar. Ularni o'z farzandidek ko'rib kelayotgan bag'rikeng O'zbekiston bugungi shiddat bilan rivojlanib borayotgan zamonda ham o'z an'ana va qadriyatlariga sodiq bo'lib kelmoqda. Bag'rikenglik, madaniy va diniy xayrixohlik, samimiylik o'zbek xalqining butun o'tmishi davomida unga hamroh bo'lib kelgan. Chunki bu fazilatlar o'zbek xalqiga xosdir. Buni biz nafaqat bugun, balki tariximizdan ham guvoh bo'lishimiz mumkin.

Millatlararo totuvlik, bag'rikenglik fazilatlari umumbashariy qadriyat sifatida ajdodlarimizdan biz avlodlarga meros bo'lib o'tib kelmoqda. Bunday qadriyatlar turli millat vakillari istiqomat qiladigan mamlakatda milliy taraqqiyotni belgilaydi, tinchlik va barqarorlikning kafolati bo'lib xizmat qiladi. Tarix fanlari doktori, professor R.X.Murtazayeva ham quyidagi mulohazalarni keltirib "Tolerantlik (bag'rikenglik) chuqur tarixiy ildizlarga ega bo'lib, turli davrlar jamiyati hayotida muhim ahamiyat kasb etgan. Bag'rikenglikning shakllanishi ibtidoiy jamiyat davrida insonning o'zini, olamni bilishga intilishi va dunyoqarashining kengayib borishi, e'tiqod, urf-odatlar, tasviriy san'at va ma'naviy madaniyatning vujudga kelishi natijasida boshlangan deb ta'kidlaydi[1]".

Xalqimizga xos bu xislatlarning qadim o'tmishi mavjudligini ushbu mavzuda ilmiy tadqiqot olib borgan tarixchilarimiz asarlarida ko'rib o'tamiz. U o'zining qadimiy ildizlariga ega. Masalan, Oybek Rashidov o'zining "O'zbekistonda millatlararo munosabatlar va bag'rikenglik" asarida o'rta asrda yurtimizda yashab ilm-fan rivojiga o'z hissasini qo'shgan qomusiy olimlarimizning tolerantlik haqidagi fikrlarini keltirib o'tadi: "Hozirgi zamon fanlari asosini yaratgan Turon zaminining buyuk allomalari – Muhammad Muso al-Xorazmiy, Ahmad Farg'oniy, Abu Nasr Farobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sinolar o'zlarining asarlarida ellararo, xalqlararo, davlatlararo tinchlik hamda insoniylik g'oyalari ilgari surganligi g'arb olimlari tomonidan ham e'tirof etilgan.

Natijalar. Abu Nasr Forobiyning "Fozil odamlar shahri", Abu Rayhon Beruniyning "Mineralogiya", "Geodeziya", "Hindiston", "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar", Abu Ali ibn Sinoning "Ahloq fani", "Oila xo'jaligi" asarlarida komil inson bo'lib yetishishda ilm, ma'rifat, tolerantlik, bag'rikenglik, tarbiyaning o'rni benihoya katta bo'lganligini ta'kidlaganlar.

Abu Rayhon Beruniy nuqtai nazariga ko'ra, tolerantlikning vujudga kelishi ijtimoiy munosabatlar, kishilarning yashash tarzi, moddiy ehtiyojlari, qiziqishlari, manfaatlari, talablari va maqsadlari bilan uzviy bog'langan. Masalan, kishilar o'rtasidagi hamkorlik, odamlarning o'zaro birlashish ehtiyojlaridan hamda tashqi xavf-xurujlaridan birgalikda xalos bo'lish zarurati tufayli vujudga kelgan. Shuningdek, Beruniy sabr-toqat va bag'rikenglik xususiyatlari xalqlarning yashovchanligini ta'minlashda tarixiy ahamiyat kasb etishini alohida qayd etadi.

Sharqning mashhur faylasufi Abu Nasr Forobiy shunday yozadi "Ba'zilar odamlar o'rtasida tabiiy yoki ixtiyoriy bog'lanishlar yo'q, har bir odam o'z manfaati uchun boshqalarning manfaatiga zarar yetkazishi, biri boshqasiga begona bo'lishi zarur, mobodo ular birlashsalar ham zarurat, majburiyat tufayli birlashadilar, o'zaro murosaga kelishsalar ham faqat biri g'olib chiqib, boshqalari mag'lub bo'lganda murosaga keladilar deb o'ylaydilar. Bunda ular tashqaridan ta'sir etuvchi bir kuch tazyiqida o'zaro kelishuvga majbur bo'ladilar. Agar ana shu kuch yo'qolsa, kelishuv ham yo'qoladi, yana begonalashuv paydo bo'ladi va ular tarqalib ketadilar. Insoniyatga xos hayvoniy aqidalardan biri mana shu noto'g'ri tasavvur va aldamchi aqidadir[2]", - deb keltirib o'tadi va bunga muallif o'z fikrini ham bildirib o'tadi: "Forobiyning bu fikrlaridan ko'rinib turibdiki, u insonlarni majburan emas, balki ixtiyoriy ravishda birgalashib, hamkorlikda yashashlari zarurligini, ana shunda o'zaro nizolar tugashini uqtiradi. Yoki yana: "Ba'zilar o'ylashicha, odamlar orasidagi bog'lanish vositalari shu odamlarning xulq-atvori, tabiati, fe'li va tilining umumiyligiga asoslanadi. Har bir xalq o'ziga xos bo'lgan mana shunday xususiyatlarga ega". Bu bilan Forobiy insonlarning bir-birlariga nisbatan mehr-oqibatli, sabr-toqatli bo'lishi zaruratini ta'kidlaydi[3]" – deydi.

Shuningdek, biz ushbu asarda Forobiyning bag'rikenglik tushunchasini alohida e'tibor qaratib quyidagi guruhlariga ajratganiga guvoh bo'lishimiz mumkin: "Jamoalari o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning alohida jihatlariga e'tibor qiladigan bo'lsak, bu xususda turli-tuman o'ziga xoslik va silsila yasovchi nuqtai nazarlar mavjudligiga guvoh bo'lamiz. Ularni Forobiy xaqi ravishda quyidagi guruhlariga ajratadi:

- kishilar o'rtasida bag'rikenglik, sabr-bardoshlilik fazilatlarini qarindoshlik yoki qon yaqinligi tufayli namoyon bo'ladi va bunday yaqin hamjihatlik mustahkam turmush hamohangligi va yakdilligini yuzaga keltiradi;

- kishilarning o'zaro bog'liqligi zahirida muayyan qabila-urug'larga tegishlilik yotadi, bu esa katta miqdordagi kishilar guruhi o'rtasida fikr yakdilligini tashkil etishi mumkin;

- kishilar islom aqidalaridagi muhim talab - imondan keyin yoziluvchi, ammo imondan qadri-qimmatini past bo'lmagan lafzni o'rta qo'yishib, ahd, qasam asosidagi o'zaro ittifoq negizida bir-birlari bilan bog'lanadilar. Bu bog'lanish o'zaro sabr va bag'rikenglik fazilatlariga yo'l ochadi;

- kishilar o'rtasidagi o'zaro yaqin aloqalar, o'zaro sabr-toqat, bag'rikenglik, urf-odat, an'analar, fe'l-atvor birligi, saviyalar tengligi, didlar o'xshashligi, xarakter yaqinligi hamda tilning umumiyliigi tufayli ham yuzaga keladi;

- kishilarni o'zaro bog'lovchi yana bir muhim vosita - ularning tug'ilib o'sgan yurtlari, yashash joylarining umumiyliigi hodisasidir.

Xavf umumiy bo'lganda, hamyurtlik hodisasi uni bartaraf etish uchun yakdillikni ta'minlaydi va muhim ijtimoiy-ma'naviy omil sifatida alohida ahamiyat kasb etadi[4]" – deb ajratadi.

Islom dini ilm-ravnaqiga ulkan hissa qo'shgan, qomusiy olim, muhaddis, yuzlab shogirdlarga hadis ilmidan dars o'tgan ulug' ustoz Imom al-Buxoriy ham bag'rikenglik, dinlararo totuvlikka alohida e'tibor qaratib, bu bo'yicha ko'plab xayrli ishlarni amalga oshirgan. U o'zining asarlarida bu haqida qaydnomalar qoldirgan. Bu haqida biz Imom al-Buxoriy xalqaro maktabi ilmiy jurnalidan nira necha satrlar keltirib o'tishimiz mumkin.

Imom Buxoriy hazratlari o'zlarining "al-Adab al-Mufrad" kitoblarida shunday hadisni rivoyat qiladi: Mujohid aytadi: Men Abdulloh ibn Amr raziyallohu anhuning huzurida edim. Uning xizmatchisi bir qo'yni so'yib, uning terisini shilayotgan edi. Abdulloh ibn Amr roziyallohu anhu xizmatchiga qarab: Qo'yni so'yib bo'lgach go'shtni birinchi bo'lib yahudiy qo'shnimizdan boshlab tarqat, dedi. O'sha yerda turganlardan biri: "Alloh sizni to'g'ri yo'ldan adashtirmasin! Yahudiydan boshla!", dedingizmi, dedi. Shunda u zot: Men Rasululloh sallollohu alayhi va sallamdan qo'shniga yaxshilik qilish haqida juda ko'p eshitganman, hatto qo'shniga meros berishni tayinlasalar ham kerak, degan xayolga ham borganmiz, dedilar.

Imom Buxoriy o'z kitoblarida rivoyat qilishlaricha, Rasululloh sallollohu alayhi va sallam vafot etgan vaqtlarida sovuqlari bir yahudiyning qo'lida garov evaziga berilgan edi. Nabiy sallollohu alayhi va sallamning sahobalari U zot uchun jonu mollarini fido qilgan insonlar edi. Ular ichida Usmon ibn Affon va Abdurahmon ibn Avf raziyallohu anhumo kabi boy sahobalar ham bor edi. Rasululloh sallallohu alayhi va sallamning birgina ishoralari bilan bor budlarini U zotning oyoqlari ostiga olib kelib tashlar edilar. Lekin shunday bo'lsa-da Rasululloh sallallohu alayhi va sallam o'zga din vakilidan qarz olganlar. Buning sababi o'zlari namuna bo'lib jamiyat birdamligi uchun ular bilan qanday muomalada bo'lish kerakligini ummatlariga ko'rsatib berganlar.

Demak, Islom shariatida o'zga din vakillari bilan inoq munosabatda bo'lishga oid munosabatlar aniq belgilab berilgan. Buyuk ajdodlarimiz o'zga din vakillari bilan qanday munosabatda bo'lish lozim ekanini o'rgatib, o'zlari bunda barchaga namuna bo'lganlar[4].

Shuningdek, madaniyatlar xilma-xilligini ta'minlashga asoslangan ta'lim vazifalari qatorida quyidagilarni sanash mumkin:

-o'quvchilarning boshqa madaniyatlarga integratsiyalashuvining sharti hisoblangan o'z xalqi madaniyatini chuqur va har tomonlama o'zlashtirishiga ko'maklashishi;

-o'quvchilarda O'zbekiston, Markaziy Osiyo, MDH mamlakatlari va umuman, dunyo madaniyati rang-barangligi to'g'risidagi tasavvurni, madaniy tafovutlarga nisbatan ijobiy munosabatni shakllantirish;

-o'quvchilarning boshqa xalqlar madaniyatiga integratsiyalashuvi uchun sharoit yaratish;

-turli madaniyat vakillari bilan o'zaro samarali ta'sirlashuv malakasini shakllantirish va rivojlantirish;

-ta'lim oluvchilarni tinchlik, toqatlilik, insonparvarlik millatlaroro muloqot ruhida tarbiyalash bilan bog'liq bo'lgan barcha masalalar tolerantlik g'oyasi bilan uzviy bog'liqdir[].

Umuman, Imom Buxoriyning hadislarida tolerantlik madaniyati va uning ijtimoiy-falsafiy talqini masalalari bo'yicha shunday xulosaga kelish mumkin. Zotan, bu "Oltin silsila" turkumidagi kitoblar avval aytib o'tganimizdek, Qur'oni karimdan keyingi ikkinchi manba, uning sharhi, hayotga tatbiqi va inson hayoti uchun zarur bo'lgan ko'plab ta'limotlarning asosidir. Shu bilan birga, yana quyidagi fikrlarni aytib o'tish mumkin:

1. Jamiyat va shaxs kamolatida tolerantlik, diniy bag'rikenglik, iymon, e'tiqod masalasini oliy maqom asosida yo'lga qo'yish va tutib turishda hadis kitoblarining o'rni juda muhimdir. Kitoblarda keltirilgan hadisi shariflar barchani to'g'ri yo'lga boshlashga xizmat qiladi.

2. Hadislarning har qanday jamiyat a'zolarining axloqiy tarbiyasi bo'yicha ahamiyati beqiyosdir.

3. Imom Buxoriy hadislarining barchasida jamiyat a'zolarida kechirimli bo'lish, jamiyatda halol kasb qilish, haromdan hazar qilish, tejamorlik, mehnatsevarlik, tashabbuskorlik, ishbilarmonlik xislatlarini shakllantirishga xizmat qiladi.

4. Hadisi shariflar jamiyat a'zolariga dunyoda tinchlik va osoyishtalik bo'yicha kurash olib borish lozimligini anglatishda katta ahamiyatga ega.

5. Imom Buxoriy kitob va hadislarida tolerantlik tarbiyasi bo'yicha ham ulkan ahamiyat kasb etadi. Bag'rikenglikni shakllantirish Imom Buxoriy hadislarida ilm-fan, ma'naviyat va e'tiqod birligi masalalariga alohida urg'u berilgan[5].

Yana bir islomshunos alloma X asrda Samarqandda yashab kalom ilmi bilan shug'ullangan Abu Mansur Moturudiy ham tolerantlik, dinlararo totuvlikka e'tibor qaratgan. Buni biz T. Sultonov hamda A. Mansurovning "Buyuk alloma Imom Moturudiy qarashlarida insonparvarlik, bag'rikenglik g'oyalarining mazmun-mohiyati haqida" deb yozgan maqolalaridan bilishimiz mumkin: "Moturidiy din asoslarini mantiqan tushuntirgan, tanlov huquqi, dinlararo bag'rikenglik, ijtimoiy hamjihatlikni qaror toptirish g'oyalarini rivojlantirgan. Uning "Qur'onni ilmdan izla", "O'rgan va o'zgalarga o'rgat", "Martabayu-izzatni ilmdan izla", "To'g'ri yo'lning ochqusi ilmdir" kabi nodir fikrlari mantiqiy jihatdan matal va maqolga aylanib ketgan. "Moturidiya ta'limoti, - degan edi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev – ilm egallash

jarayonida

bag'rikenglik g'oyasi asosida inson aql-zakovatining o'rni va ahamiyatiga yuksak e'tibor qaratadi. Bu o'z navbatida ushbu ta'limotning keng ommalashuvida muhim o'rin tutgan. Bunday g'oyalarga bugungi kunda ham insoniyat katta ehtiyoj sezmoqda. Buyuk tariximizda hech narsa izziz ketmaydi. U xalqning qonida, tarixiy xotirasida saqlanadi va amaliy ishlarida namoyon bo'ladi. Shuning uchun ham u qudratlidir. Tarixiy merosni asrab-avaylash, o'rganish va avlodlardan-avlodlarga qoldirish davlatimiz siyosatining eng muhim ustuvor yo'nalishlaridan biridir [6]".

O'n bir asr avval yurutilgan fikrlar bugun ham bizning tafakkurimiz ostida o'z o'rniga ega. Sababi, Bag'rikenglik – hamdardlik, hamnafaslik kabi xalqimizga xos xislatlardan oziqlanganligi uchun ham chuqur ildizga, ahamiyatga ega. Nafaqat Imom al-Buxoriy, Forobiy, Beruniy, Moturudiy asarlarida balki Ahmad Yassaviy, Burhoniddin Marg'inoniy, Jaloliddin Rumiy ijodida ham bu tushuncha ahamiyatlidir. N. abdullayeva va G. Tillabayevaning "Jaloliddin Rumiy ijodida diniy bag'rikenglik g'oyalarining tarbiyaviy ahamiyati" mavzusida yozgan maqolalarida quyidagilarni keltirib o'tishgan: «Bag'rikenglik tushunchasi chidamlilik, bardoshlilik, toqatlilik, o'zgacha qarashlar va harakatlarga hurmat bilan munosabatda bo'lish, muruvvatlilik, himmatlilik, kechirimlilik, mehribonlik, hamdardlik kabilarni mujassam etadi. Diniy bag'rikenglik dinlarga bo'lgan xolis munosabat, dinlarni bir-biri ustidan ustun qo'ymaslik, ularni ajratmaslik, ularni bir-biriga qarshi qo'ymaslik, inson diniy e'tiqodiga hurmat bilan qarash, shu bilan birga, boshqa din g'oyalarini singdirishga urinmaslik, dinsizlar huquqlarining hurmat qilinishi kabi mohiyatan zarur bo'lgan g'oyalarni o'z ichiga qamrab oladi.

Islom dinida Qur'oni karim, hadislar, muhaddis va ulamolarning asarlarida xususan, «Al-Adab Al-Mufrad», «1001 hadis», «Shamoyili Muhammadiya» hamda ko'plab mutafakkirlar merosida bag'rikenglik, do'stlik, insoniylik, o'zaro-hurmat, ahillik masalalariga katta e'tibor qaratilgan. "Musulmonning yaxshisi boshqa musulmonlar uning tili va qo'lidan ozor topmagan kishilardir", "Odamlarning yaxshisi boshqa odamlarga manfaatlirog'idir» kabi har bir inson o'zgalarga yordam qilishi, insonparvar, muruvvatli bo'lishi lozimligi bilan bog'liq qadriyatlar ta'kidlanganiga guvoh bo'lish mumkin.

Ahmad Yassaviy hikmatlarida «Sunnat ermish, kofir bo'lsa, berma ozor. Ko'ngli qattiq dilozordan Xudo bezor»[7] deb yozadi.

Burhoniddin Marg'inoniy «Hidoya» asarida musulmonlar diyorida cherkov va ibodatxonalar buzilib ketgan bo'lsa, ularni yana qayta tiklash joizligini alohida aytib o'tadi [].

Buyuk alloma, orif, shoir Jaloliddin Rumiy ta'limotida ham diniy bag'rikenglik masalasi o'zina xos talqin etiladi. Jaloliddin Rumiy fikricha, inson buyuk bir mo'jiza, «Inson Allohning usturlobidir. Ulug' Alloh insonni bilimli, ilimli va olim qilib yaratgani uchun inson o'z borlig'ining usturlobida

vaqti-vaqti bilan Alloh tajallisini va benazir go‘zalligini porloq bir holda ko‘radi. Bu Jamol mazkur ko‘zguni hech qachon tark etmaydi[]” – deb keltirib o‘tgan.

Allomalarning asarlarini mutolaa qilish orqali mualliflar o‘z fikr mulohazalarini ham bayon etishgan. “Jaloliddin Rumiy asarlarida bag‘rikenglik, turli millatlar, mazhablar o‘rtasidagi munosabatlarga oid misollar ko‘plab uchraydi. Uning buyukligi ham barcha mazhablar va dinlardan yuqori ko‘tarila olgani, insoniyatni birlashtiruvchi yagona ilohiy g‘oyalarni ilgari surganidadir. Jumladan, islom dinining barcha oqimlari va boshqa dinlar uchun u yagona g‘oyani ilgari surib, unda Yaratganga bo‘lgan muhabbatni, uning kuchiga bo‘lgan e‘tiqodni, niyat va ishlarning pokligini tarannum etgan. Jaloliddin Rumiy asarlarida ahillik, birodarlik, insoniylik, do‘stlik kabi qadriyatlar hadis va oyatlar, hikoyat va tamsillar orqali falsafiy muhokamalar asosida tushuntirib beriladi. Alloma asarlari kishini fikrlashga, hodisalarning mohiyat va ma‘nosini anglashga, tafakkur doirasini kengaytirishga undaydi. Olam va odamning mohiyatini anglash, o‘zini-o‘zi takomillashtirish, axloqiy yuksalish, ezgulik, xayr, himmat, mardlik, insonparvarlik g‘oyalari Rumiy merosining asosini tashkil etadi.

Bag‘rikenglik turli qarashlarni, e‘tiqodlarni, jahon madaniyatini hurmatqilish, umuminsoniy qadriyatlarni qabul qilish va to‘g‘ri tushunish, insonni o‘zligini namoyon qilish asosidagi individualligining global ma‘noda ko‘rinishidir. Bugun bag‘rikenglik g‘oyasi atrofida yer kurrasining barcha xalqlari, millatlarini jipslashish

zarurati tug‘ildi. O‘zbekiston Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev BMT Bosh Assambleyasi 72-sessiyasida so‘zlagan nutqida “Ma‘rifat va diniy bag‘rikenglik” deb nomlangan maxsus rezolyutsiyasini qabul qilish taklifini kiritdi. O‘zbekiston butun jahon jamoatchiligiga islom dinining asl insonparvarlik mohiyatini yetkazishni eng muhim vazifa, deb hisoblashini ta‘kidlab o‘tdi. Ushbu rezolyutsiya bag‘rikenglik va o‘zaro hurmatni qaror toptirish, diniy erkinlikni ta‘minlash, e‘tiqod qiluvchilarning huquqini himoya qilish, ularning kamsitilishiga yo‘l qo‘ymaslikka ko‘maklashishga qaratilgan.

Bag‘rikenglik umumbashariy turli boy madaniyatlarni, inson dahlsizligini namoyon qilishning xilma-xil usullarini hurmat qilish, qabul qilish va to‘g‘ri tushunishni anglatadi. Uni bilim, samimiyat, ochiq muloqot hamda hur fikr, vijdon va e‘tiqod vujudga keltiradi. Bag‘rikenglik turli tumanlikdagi birlikdir. O‘zgalarning dunyoqarashi, diniy e‘tiqodi, milliy va etnik xususiyatlari, an‘ana-marosimlariga hurmat-ehtiromda bo‘lish, muomala munosabatlarida kamsitish va tahqirlashlarga yo‘l qo‘ymaslik, insoniylikni hamma narsadan ustun hisoblab, jamoada, ish joylarida, mahalla-ko‘yda bunga rioya etishni anglatadi. Jaloliddin Rumiy asarlari ham yoshlarni bag‘rikenglik, toqatlilik ruhida tarbiyalashga xizmat qiladi.

Mayliga, kim bo‘lmagil, kel baribir,

Dahri-yu, otashparastsen, baribir.

Necha bor paymonshikasta – baribir,
Noumid qo‘ymas seni ostonamiz
Mayliga, kim bo‘lmas, kel bori bir.

Ushbu tushunchalar faqat millatlar taqdirini belgilashda muhim ahamiyat kasb etibgina qolmay, balki, xorijiy mamlakatlar bilan bo‘ladigan ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy aloqalarda muhim o‘rin tutganligi sababli yurt rahnamolari ham bunga alohida e‘tibor qaratishgan. “Bag‘rikenglik tamoyillari deklaratsiyasida ta’kidlanganidek, “Bag‘rikenglik (tolerantlik) bo‘lmasa, tinchlik bo‘lmaydi, tinchliksiz esa taraqqiyot va demokratiya bo‘lmaydi[7]”-deyilgani kabi masala alohida e‘tiborni talab qiladi.

Xulosa. Yurtimiz hududida ulug‘ saltanat bunyod etgan hukmdor Amir Temur, Mirzo Ulug‘bek, shoh va shoir Zahiriddin Muhammad Bobur ham mamlakatda tinchlik va barqarorlikning asosi sifatida bu tushunchalarga davlat siyosati darajasida qaragan va millatlararo munosabatlar, dinlararo totuvlikni saqlash yo‘lida ulkan ishlar amalga oshirganligi biz tarixiy kitoblarni o‘qish orqali guvohi bo‘lganmiz.

Yuqoridagilardan ko‘rishimiz mumkinki, bugungi o‘zbek xalqiga xos bo‘lgan bag‘rikenglik fazilati ajdodlarimizdan bizga sayqallanib o‘tib kelmoqda. Biz ularga munosib voris bo‘lib, qadriyatlarimizni asrab-avaylab keyingi avlodlarga ham yetkazishimiz lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Murtazayeva R. O‘zbekistonda millatlararo munosabatlar va tolerantlik. – Toshkent: “GoTo Print”, 2020. 21-b
2. T. Sultonov, A. Mansurov “Buyuk alloma Imom Moturudiy qarashlarida insonparvarlik, bag‘rikenglik g‘oyalarining mazmun-mohiyati haqida”. O‘zbekistonda millatlararo totuvlik, milliy, diniy va siyosiy bag‘rikenglikni yanada rivojlantirishning ijtimoiy, falsafiy masalalari. 229-bet.
3. Bag‘rikenglik tamoyillari deklaratsiyasi.// YUNESKO Xalqaro me‘yoriy hujjatlari. –T.: Adolat,2004. 92-bet.
4. Mirziyoyev Sh. M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. T.1-T.: O‘zbekiston NMMU, 2017. 29-bet.
5. Ahmad Yassaviy. Hikmatlar. – T.: G‘afur G‘ulom NMB, 1992. 22-bet.
6. Burhoniddin Marg‘inoniy. Hidoya – T.: Adolat, 2000. 690-bet.
7. Jaloliddin Rumiy. Ichingdagi ichingdadur. – T.: G‘afur G‘ulom nomidagi MIU, 2005, 222-bet.